



## XALQ DEPUTATLARI YANGIYER SHAHAR KENGASHI Q A R O R I

121000, Yangiyer shahar Yangi asr ko'chasi, telefon: 350-10-76

2022 - yil 29 - aprel

VI-55-57-9-132-K/22

Yangiyer shahar hokimligi

### **T.F.Olimovni deputatlik vakolatlarini muddatidan ilgari tugatish to'g'risida**

O'zbekiston Respublikasi "Mahalliy davlat hokimiyati to'g'risida"gi Qonunining 6 va 24-moddalariga hamda "Xalq deputatlari viloyat, tuman va shahar Kengashi deputatining maqomi to'g'risida"gi Qonunining 3-moddasiga asosan, Xalq deputatlari shahar Kengashi **qaror qiladi:**

1. Xalq deputatlari shahar Kengashiga 8-"Yoshlik" saylov okrugidan saylangan deputat Olimov Tolmas Farxodovichning "Xalq deputatlari viloyat, tuman va shahar Kengashi deputatining maqomi to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonunining 3-moddasiga hamda Jinoyat ishlari bo'yicha Boyovut tuman sudining 2021-yil 6-oktyabrdagi qaroriga asosan deputatlik vakolatlarini muddatidan ilgari tugatilgan deb hisoblansin.

2. Olimov Tolmas Farxodovich - Xalq deputatlari Yangiyer shahar Kengashining Sanoat, transport, qurilish, kommunal xo'jaligi masalalari va aholiga xizmat ko'rsatish bo'yicha doimiy komissiyasi tarkibidan chiqarilsin.

3. Ushbu qarorni xalq deputatlari Yangiyer shahar Kengashiga saylov o'tkazuvchi shahar saylov komissiyasi (Q.Kunnuzov)ga ma'lumot va ijro uchun yuborilsin, 8-"Yoshlik" saylov okrugiga bo'shab qolgan deputatlik o'rnini uchun 2022-yil 29-may yakshanba kuni saylov o'tkazilishini taminlasin.

4. Mazkur qarorning ijrosini nazorat qilish Xalq deputatlari Yangiyer shahar Kengashining Reglament va deputatlik odobi masalalari bo'yicha doimiy komissiyasi raisi (O.Xodjiyev) zimmasiga yuklatilsin.

Kengash raisi



I.Xo'jayev